https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

To‘rayeva Charosxon Shavkat qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti
torayevacharosxon5@gmail.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SENSOR-INTELLEKTUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor-intellektual tafakkurni rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sensor tarbiya va intellektual rivojlanishni integratsiyalashgan holda tashkil etishning pedagogik samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, suhbat, tajriba-sinov ishlari hamda statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari natijalari bolalarning sensor idrok, taqqoslash, tasniflash, sabab–oqibat munosabatlarini aniqlash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarida sezilarli ijobiy o‘sish mavjudligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar sensor va intellektual rivojlanishni yagona pedagogik tizim sifatida olib borish maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faolligini oshirish va ularni maktab ta’limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, sensor tarbiya, intellektual tafakkur, sensor-intellektual rivojlanish, didaktik o‘yinlar, bilish faoliyati.

KIRISH

Maktabgacha ta’lim — bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi bosqichlardan biridir. UNESCO va UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar bolalarning erta rivojlanishini ta’minlashni global ustuvor yo‘nalish sifatida tan olgan. Zero, maktabgacha ta’lim sifati jamiyatning umumiy taraqqiyoti bilan bevosita bog’liq. Hozirgi kunda ko‘plab davlatlarda ushbu tizimda islohotlar amalga oshirilmoqda, O‘zbekiston ham bundan mustasno emas.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb masala

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

hisoblanadi. Sensor tarbiya esa bu jarayonda muhim o‘rin egallaydi, chunki u bolaning bilish faoliyatini faollashtiradi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib “tafakkur”, “sensor tabiya”, “intellekt” atamalarini alohida izohlasak:

Tafakkur – bu aksiomatik qoidalar asosida atrofdagi dunyoning naqshlarini modellashtirishning aqliy jarayonidir. Biroq, psixologiyada boshqa ko‘plab ta’riflar mavjud.

Masalan: inson ma’lumotlarini qayta ishlashning eng yuqori bosqichi, atrofdagi dunyo ob’ektlari yoki hodisalari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish jarayoni yoki ob’ektiv voqelik haqidagi g’oyalarning paydo bo‘lishiga olib keladigan ob’ektlarning muhim xususiyatlarini, shuningdek, ular o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettirish jarayoni. Ta’rif bo‘yicha bahslar bugungi kungacha davom etmoqda.

Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to‘g’ri), to‘liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning yanada oqilona amali faoliyat bilan shug’ullanishiga imkon beradi.

Sensor tarbiya – sezgi va idrokni biror maqsadga qaratilgan holda rivojlantirishdir.

“Sensor” so‘zi lotincha “sensus” – “tuyg’u”, “sezgi”, “idrok”, “sezish qobiliyati” ma’nolarini anglatadi. Borliqni bilish sezgi, idrok qilishdan boshlanadi. Inson ko‘rish, sezish va hokozolar yordamida tevarak atrofdagi narsa va hodisalar to‘g’risida bilimga ega bo‘ladi, faqat shular asosidagina unda xotira, tafakkur, xayol jarayonlari hosil bo‘ladi.

Bog’cha va kichik maktab yoshidagi bolalar aqliy bilimining 10/9 qismini sezish orqali idrok etilgan taassurotlar tashkil etadi. Sezgi va idrok qanchalik boy bo‘lsa, insonning tevarak-atrofdagi olam haqidagi tasavvurlari shunchalik keng bo‘ladi.

Intellekt (lotincha “intellectus”– aql, idrok, zehn) – keng ma’noda: kishining voqea-hodisa mohiyatini to‘laligicha bilishiga asoslangan va u orqali namoyon bo‘ladigan faoliyati; tor ma’noda: insonning tafakkur, fikr yuritish salohiyati.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Intellekt kishilarning aql, idrok, zakovat, ma'naviy jihatdan yetuklik darajasini ham bildiradi; tasavvur, idrok, sinchkovlik orqali jamlangan materialni bilish usullari (taqqoslash, abstraksiya, tushuncha, hukm va hokazo.) orqali asosli bilimga ega bo'lish yoki mavjud bilimni tanqidiy tahlil etib chiqish qobiliyatini ham anglatadi.

Sensor tafakkur — bolaning atrof-muhitni sezgi organlari orqali idrok etishi (rang, shakl, o'lcham, tovush, hid, maza-ta'm singari).

Intellektual tafakkur — sezgi orqali olingan axborotni: tahlil qilish, taqqoslash, tasniflash, sabab–oqibatni aniqlash, xulosa chiqarish qobiliyatlari bilan bog'liq jarayon.

Davlat siyosati oldida turgan asosiy masala sifatida O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarori va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda ushbu mavzu o'z dolzarbligini ko'rsatadi.

Bu bilan biz nima demoqchimiz ya'ni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning fikrlash, tafakkur olamini boyitishni sensor-intellektual integratsiya orqali amalga oshirishni ko'zda tutganmiz. Ayni shu yoshdan boshlab bolalarning ichki "Men"ini to'g'ri shakllantirib, mustaqil fikrlovchi, intellektual salohiyatli shaxsni shakllantirish maqsad qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilm-fan taraqqiyotida bir necha asrlardan beri fan oldida turgan bir qancha muammolarga yechim izlanmoqda, topilmoqda va amaliyotga joriy qilinmoqda. Shu nuqatyi nazardan maktabgacha yosh davrining o'ziga xos xususiyatlari sifatida bolalarning mustaqil ongli ravishda fikrlay olishi, sensor qobiliyatlari va intellektual tafakkuri uzoq o'tmishdan beri o'rganib kelinmoqda.

Xususan, Parmenid - qadimgi yunon faylasufi va siyosatchisi, tafakkurga ilmiy yondashuvning asoschisi.

Qadimgi faylasuflar va olimlar tafakkurni o'rganishni boshladilar, lekin ular buni psixologiya emas, balki boshqa fanlar, birinchi navbatda, falsafa va mantiq

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

nuqtai nazaridan qildilar. Ulardan birinchisi Parmenid edi. "Haqiqat yo‘li" inshosida u Yevropa faylasuflari tarixida birinchi bo‘lib deduktiv metafizikaning asosiy qoidalarining qisqartirilgan taqdimotini taqdim etdi. Shu bilan birga, u fikrlash jarayonini mantiq nuqtai nazaridan ham ko‘rib chiqadi. Falsafiy nuqtai nazardan u borliqning tafakkurga o‘xshashligini ta’kidlaydi:

Tafakkur tarixida intellekt to‘g’risidagi fikr-mulohazalar turlicha bo‘lgan. O‘rta asrlarda intellekt irodaga bo‘ysunadimi yoki iroda intellektgami degan masala bo‘yicha qizg’in munozaralar avjiga chiqqan. O‘sha davrlarda intellekt bilishning eng yuksak – ilohiy usuli sifatida inson tafakkuriga qarshi qo‘yilgan. Birinchi nuqtai nazar tarafdorlari Duns Skot va Uilyam Okkam bo‘lsa, ikkinchi qarash tarafdorlaridan biri Foma Akvinskiy edi. Hozirgi zamon falsafasida intellekt ham, iroda ham mavjud holatga asoslangan holda namoyon bo‘ladi yoki intellekt ma’naviyatga taalluqli bo‘lgani uchun ruhiy holat mahsuli sifatida irodadan ustun turadi, degan tasavvurlar mavjud. Inson bosh miyasi qobig’ida o‘n to‘rt milliarddan oshiq neyronlar mavjud. Ularning vazifasi inson faoliyatini har tomonlama, to‘la boshqarishdan iborat.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, beshikdagi har bir go‘dakda daho bo‘lish imkoni mavjud. Hamma gap ushbu "daho"ni talab darajasida tarbiyalay olishda. Bugungi kundagi ilm-fan xulosasiga ko‘ra insoniyat tarixida atigi 400 ga yaqin kishi daholik maqomiga sazovor bo‘lgan, xolos. Bu esa daho insonlarni tarbiyalash qanchalik qiyin ish ekanini ko‘rsatadi. Gap shundaki daholarni tarbiyalab voyaga yetkazishda nafaqat bir oila yoki bir xalqning, balki butun insoniyatning ma’naviy yutuq va tajribalaridan foydalanish kerak bo‘ladi.

K.D.Ushinskiyning fikriga ko‘ra, taqqoslash har qanday tushunish va tafakkurning asosi hisoblanadi. U olamdagi narsalarni faqat taqqoslash orqali bilish mumkinligini ta’kidlagan.

M.V.Gamezo, A.V.Petrovskiy, V.V.Bogoslovskiy, O.K.Tixomirov, S.L.Rubinshteyn va A.N.Leontev kabi psixologlarning tafakkur (fikrlash) ta’riflari

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

va nazariyalari haqida qisqacha ma’lumot beradi. Unda turli olimlarning tafakkurning mohiyati, xususiyatlari va predmetiga oid qarashlari yoritilgan.

M.V.Gamezo tomonidan “tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so‘z hamda o‘tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi” ekanligi bayon qiladi.

A.V.Petrovskiy tahriridagi darslikda tafakkurga quyidagicha ta’rif keltiradi: “Tafakkur – ijtimoiy, sababiy, nutq bilan chambarchas bog’liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilish, uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir”.

O.K.Tixomirovning ta’rifi boshqalarga nisbatan to‘liqroq hisoblanadi, unda tafakkurning tarkibiy qismlari ifodalangan.

S.L.Rubinshteyn va A.N.Leontev tafakkurni jarayon, faoliyat va predmetli-amaliy faoliyat sifatida o‘rganishni taklif qilishadi.

O‘zbek pedagog va psixolog olimlar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya, intellektual qobiliyatlar, mantiqiy tafakkur va bilish faoliyatini rivojlantirish masalalari alohida yo‘nalish sifatida o‘rganilgan.

Xususan, M.Umarova, G.G’afforova, N.Sodiqova, D.Raximova, Sh.Yo‘ldosheva kabi olimlarning ilmiy ishlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sensor mashg’ulotlar orqali bolalarning idroki, tafakkuri va nutqini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan.

Respublika miqyosida olib borilgan tadqiqotlarda asosan: sensor tarbiya mazmuni, didaktik o‘yinlar orqali tafakkurni rivojlantirish, intellektual ko‘nikmalarni shakllantirish metodlari keng yoritilgan.

Biroq mazkur ishlarning ko‘pchiligida sensor rivojlanish va intellektual tafakkur alohida-alohida o‘rganilgan, ularning integrativ — sensor-intellektual tafakkur sifatida yagona tizimda shakllanishi yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

Sensor tarbiya va intellektual tafakkur masalalari mavjud bo‘lsa-da, maktabgacha ta’lim tashkiloti sharoitida sensor-intellektual tafakkurni kompleks

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

rivojlantirish modeli yetarli ishlab chiqilmagan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida sensor va intellektual faoliyatni uyg'unlashtirish metodikasi kam o'rganilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida sensor-intellektual tafakkurni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlarining majmui qo'llanildi. Tadqiqot jarayoni tizimli, bosqichma-bosqich va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etildi.

Tadqiqot tavsifiy-analitik va tajriba-sinov (eksperimental) ko'rinishga asoslangan. Dastlab nazariy tahlil orqali sensor tarbiya va intellektual tafakkur masalalarining ilmiy-metodik asoslari o'rganildi, so'ngra amaliy faoliyat jarayonida ularning integratsiyalashgan rivojlanish darajasi baholandi.

Tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotining katta va tayyorlov guruhlarida tarbiyalanayotgan 5–6 yoshli bolalar, shuningdek, tarbiyachilar ishtirok etdi. Ishtirokchilar yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi va ta'lim sharoitlarining o'xshashligi asosida tanlab olindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy metodlar: pedagogik, psixologik va falsafiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish;

Empirik metodlar: pedagogik kuzatish, suhbat, savolnoma, diagnostik topshiriqlar;

Pedagogik tajriba-sinov: sensor mashg'ulotlar, didaktik o'yinlar, mantiqiy topshiriqlar va integrativ faoliyat turlarini joriy etish;

Matematik-statistik metodlar: olingan natijalarni foizlarda tahlil qilish va solishtirish.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida bolalarning: rang, shakl, hajm, tovush, faktura kabi sensor idrok ko'rsatkichlari; taqqoslash, tasniflash, sabab–oqibatni aniqlash, xulosa chiqarish kabi intellektual tafakkur ko'nikmalari maxsus ishlab chiqilgan


https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mashg'ulotlar va didaktik o'yinlar orqali rivojlantirildi. Mashg'ulotlar davomida sensor va intellektual faoliyatning uyg'unlashuvi ta'minlandi.

Baholash mezonlari

Sensor-intellektual tafakkur rivojlanganlik darajasi quyidagi mezonlar asosida baholandi: sensor belgilarni to'g'ri farqlay olish; idrok etilgan axborotni tahlil va umumlashtira olish, mustaqil fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyati; topshiriqlarni bajarishda faollik va ijodkorlik.

Natijalar boshlang'ich va yakuniy tahlil orqali solishtirildi.



Diagrammadan ko'rinadiki, tajriba-sinov ishlari yakunida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori darajadagi natijalar sezilarli oshgan. Ayniqsa, taqqoslash, tasniflash, sabab–oqibat munosabatlarini aniqlash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarida o'sish yaqqol namoyon bo'lgan. Bu sensor va intellektual faoliyatni integratsiyalashgan holda tashkil etish samaradorligini tasdiqlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari davomida maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor-intellektual tafakkur rivojlanganlik darajasi boshlang'ich (diagnostik) va yakuniy (nazorat) bosqichlarda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari sensor va intellektual faoliyatni integratsiyalashgan holda tashkil etish bolalarning bilish jarayonlariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini berdi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Boshlang'ich tahlil jarayonida bolalarning sensor idrok va intellektual tafakkur ko'nikmalarida quyidagi holatlar kuzatildi:

- rang, shakl va hajmni farqlash ko'nikmalari nisbatan shakllangan bo'lsa-da, ularni taqqoslash va umumlashtirish jarayonida qiyinchiliklar mavjudligi;
- topshiriqlarni bajarishda ko'rsatmaga tayanish darajasi yuqoriligi, mustaqil fikrlashning yetarli emasligi;
- sabab–oqibat munosabatlarini aniqlashda passivlik;
- mantiqiy xulosa chiqarishda ketma-ketlikning buzilishi.

Tahlil natijalariga ko'ra, bolalarning katta qismida sensor idrok mavjud bo'lsa-da, u intellektual tafakkur bilan yetarli darajada uyg'unlashmaganligi aniqlandi.

Tajriba bosqichida sensor mashg'ulotlar, didaktik o'yinlar va mantiqiy topshiriqlar asosida tashkil etilgan integrativ faoliyat jarayoni bolalarning bilish faolligini oshirdi. Mashg'ulotlarda quyidagilarga alohida e'tibor qaratildi:

- sezgi orqali olingan axborotni tahlil qilish;
- taqqoslash va tasniflash asosida fikrlashni rivojlantirish;
- predmet va hodisalarning umumiy va farqli belgilarini aniqlash;
- mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savol-javoblar.

Jarayon davomida bolalarning mashg'ulotlarga qiziqishi, faol ishtiroki va topshiriqlarni mustaqil bajarish darajasi ortgani kuzatildi.

Yakuniy nazorat bosqichida olingan natijalar boshlang'ich diagnostika bilan solishtirildi va quyidagi ijobiy o'zgarishlar aniqlandi: sensor belgilarni aniq va ongli farqlay olish darajasi oshdi; idrok etilgan axborotni tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalari shakllandi; mantiqiy fikrlash va sabab–oqibat bog'liqliklarini aniqlashda faollik kuchaydi; topshiriqlarni bajarishda mustaqillik va ijodkorlik namoyon bo'la boshladi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, sensor-intellektual faoliyatning integratsiyalashgan shaklda tashkil etilishi bolalarda nafaqat sezgi asosidagi idrokni, balki yuqori darajadagi tafakkur jarayonlarini ham samarali rivojlantiradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sensor va intellektual rivojlanishning alohida emas, balki yagona pedagogik tizim sifatida olib borilishi bolalarning bilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa bolalarning maktab ta’limiga psixologik va intellektual tayyorgarligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari ilgari olib borilgan ilmiy izlanishlar bilan uyg’un bo‘lib, maktabgacha ta’lim amaliyotida sensor-intellektual tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarni keng joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida sensor-intellektual tafakkurni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida olib borilgan nazariy tahlil, tajriba-sinov ishlari hamda ularning natijalari sensor va intellektual rivojlanishni integratsiyalashgan holda tashkil etish bolalarning bilish faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, sensor mashg’ulotlar va intellektual topshiriqlar uyg’unligida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bolalarda rang, shakl, hajm kabi sensor belgilarni anglash bilan birga, ularni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, yakuniy bosqichda mustaqil fikrlash, sabab–oqibat munosabatlarini aniqlash hamda ijodkorlik darajasining oshgani tadqiqotning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar sensor rivojlanish va intellektual tafakkurni alohida emas, balki yagona pedagogik tizim sifatida olib borish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta’limiga psixologik va intellektual tayyorgarligini ta’minlashda, borliqni ongli anglashda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sensor tarbiya va intellektual rivojlanishni integratsiyalashgan mashg’ulotlar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ta’lim jarayonida rang, shakl, hajm, tovush va faktura bilan bog’liq didaktik o‘yinlar va mantiqiy topshiriqlar ulushini oshirish tavsiya etiladi.

Tarbiyachilar uchun sensor-intellektual tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodik qo‘llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Mashg’ulotlar jarayonida bolalarning mustaqil fikrlashi va ijodkorligini rag’batlantiruvchi savol-javoblardan keng foydalanish lozim.

Sensor-intellektual tafakkur rivojlanish darajasini aniqlash uchun boshlang’ich va yakuniy diagnostika tizimini muntazam joriy etish tavsiya etiladi.

Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda sensor-intellektual tafakkurni rivojlantirishning raqamli texnologiyalar, STEAM yondashuvi va innovatsion pedagogik metodlar bilan uyg’unligi chuqurroq o‘rganilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Gamezo, M. V. (2004). Umumiy psixologiya. Moskva: Pedagogika.
2. Leontev, A. N. (2000). Faoliyat. Ong. Shaxs. Moskva: Politizdat.
3. Mamayusupov.O.V. , April 16-17, 2025. International scientific and practical conference strategies for improving and developing the quality of preschool education: problems, solutions and international experiencemaktabgacha ta’limning buguni va istiqbollari
4. Petrovskiy, A. V. (Ed.). (2009). Psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Qodirova.F.R, Toshpo‘latova.Sh.Q, Kayumova.N.M, A’zamova.M.N. (2019). Maktabgacha pedagogika. Toshkent. Tafakkur.
6. Rubinshteyn, S. L. (2002). Umumiy psixologiya asoslari. Moskva: Piter.
7. Tixomirov, O. K. (2001). Tafakkur psixologiyasi. Moskva: Moskva universiteti nashriyoti.
8. Ushinskiy, K. D. (1988). Inson — tarbiya predmeti. Moskva: Pedagogika.
9. Umarova, M. (2015). Maktabgacha pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

10. G‘afforova, G. (2017). Maktabgacha ta’limda sensor tarbiya orqali bolalar tafakkurini rivojlantirish. Pedagogik ta’lim, 3(2), 45–49.
11. Sodiqova, N. (2018). Didaktik o‘yinlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi. Ta’lim va tarbiya, 4(1), 62–66.
12. Zufarova M.E.Umumiy psixologiya. Darslik, 2008.188-b
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2019). O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. Toshkent.
14. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tafakkur_(psixologiya)
15. https://uz.wikiquote.org/wiki/Tafakkur